

PEDAGOGLARDA PEDAGOGIK TAKT VA PEDAGOGIK ETIKA

Olimova Durdona Tursunboy qizi, Mamatxanova N.T

**Namangan davlat pedagogika instituti, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, Texnologik ta'lim
yo'nalishi, 2-bosqich talabasi**

Ilmiy rahbar (Scientific advisor)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20200621>

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik takt va pedagogik etikaning mazmuni, ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati hamda o'qituvchi faoliyatidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni shakllantirish, sinfda sog'lom muhit yaratish, o'quvchilarning axloqiy va ruhiy rivojlanishini ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Maqolada pedagogik takt va etikani amalda qo'llash usullari hamda ularni rivojlantirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik takt, pedagogik etika, ta'lim jarayoni, o'qituvchi, o'quvchi, axloqiy tarbiya, adolatli baholash, ijobiy muhit, pedagogik mahorat, kommunikativ madaniyat

Pedagogik takt va pedagogik etika — bu ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni o'rnatishda, sinfda sog'lom muhit yaratishda, o'quvchilarning hissiy va aqliy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Pedagogik takt o'qituvchining nozik, murosali va adolatli yondashuvini ifodalasa, pedagogik etika o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hurmatli va axloqiy munosabatlarida yuksak me'yorlarga asoslanadi. Pedagogik takt — o'qituvchining o'quvchilarga, ota-onalarga va boshqa pedagogik xodimlarga bo'lgan munosabatidagi noziklik, xushmuomalalik va adolatni anglatadi. Takt — bu o'qituvchining o'z ishini samarali amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan muhim pedagogik fazilatlardan biridir. Pedagogik taktning ahamiyati shundan iboratki o'quvchilarning ruhiy holatini tushunish, sinfda ijobiy muhit yaratish va o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantirishdan iboratdir. Pedagogik taktning amalda qo'llashda tushunmovchiliklarga murosali yondashuv muhim ahamiyat talab etadi. Bundan tashqari yordam va rag'batlantirish shu bilan birgalikda o'quvchining xatolarini odilona baholash lozim.

Pedagogik etika — ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi axloqiy munosabatlar va o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatida qanday axloqiy qoidalarga amal qilishini ifodalaydi. Pedagogik etika o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hurmat, adolat va mas'uliyatni belgilab beradi. Pedagogik etikaning ahamiyati asosan o'quvchilarga hurmat, o'quvchilarning axloqiy rivojlanishi va ta'lim jarayonida muvozanat saqlashdan iboratdir. Pedagogik etikani amalda qo'llashda quyidagilarga ahamiyat beriladi. O'quvchilarga hurmat va mehr ko'rsatish, adolatli baholash va o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini saqlashda yaqqol namoyon bo'ladi. Pedagogik takt va etika o'qituvchining professional faoliyatida muhim omil bo'lib, bu fazilatlarni o'quvchilarga o'rgatish va ularda shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilar pedagogik takt va etikaning muhim tamoyillarini amaliy misollar va voqealar orqali o'rgatishlari mumkin. Bu metod orqali o'quvchilar real hayotda yuzaga keladigan etika va takt muammolariga qanday yondashishni o'rganadilar. Pedagogik etika va taktning o'rgatishda roli o'yinlar qo'llash juda foydalidir. Bu metod orqali o'quvchilar turli vaziyatlarda qanday qilib taktli va axloqiy xulq-atvor ko'rsatishlari kerakligini amalda sinab ko'rishlari mumkin. O'qituvchi tezkor pedagogik diagnostika qila olishi zarur, ya'ni taktli o'qituvchi vaziyatni tez tahlil qila oladi, o'quvchining emotsional holati tushunadi. Ba'zi vaziyatlarda o'qituvchilar ta'sir usulini tanlash kerak bo'ladi. Har bir vaziyatda bir nechta pedagogik variant mavjud bo'ladi. Masalan, vaziyatga to'g'ridan-to'g'ri aralashish,

muhokama orqali yechim yoki vaqtinchalik chekinish strategiyasini qo'llash mumkin. Takt — eng samarali variantni tanlash san'atidir. O'qituvchi ko'p holatlarda o'z hissiyotlarini nazorat qilmasa, pedagogik ta'sir yo'qoladi. Shu sababli emotsional barqarorlik taktning asosiy elementi hisoblanadi. Pedagogik takt — vaziyatni boshqarish san'ati bo'lsa, pedagogik etika — bu boshqaruvning axloqiy chegaralarini belgilovchi tizimdir. Ularning uyg'unligi ta'lim jarayonini mexanik jarayondan insoniy va rivojlantiruvchi muhitga aylantiradi.

Natijada ta'lim nafaqat bilim berish, balki shaxsni shakllantirish, ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash va inson kapitalini rivojlantirish vositasiga aylanadi.

Mening fikrimcha, pedagogik takt va pedagogik etika bugungi ta'lim tizimining eng muhim ustunlaridan biridir. Chunki zamonaviy o'quvchi faqat bilim emas, balki hurmat, e'tibor va psixologik qo'llab-quvvatlashga ham ehtiyoj sezadi. O'qituvchining birgina muomalasi o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini oshirishi yoki aksincha pasaytirishi mumkin. Shu sababli pedagogik takt har bir o'qituvchining kundalik faoliyatida doimo namoyon bo'lishi kerak. Pedagogik etika esa o'qituvchining kasbiy madaniyatini belgilaydi. Adolatli baholash, o'quvchini kamsitmaslik, uning fikrini tinglash va sir saqlash kabi fazilatlar o'qituvchining haqiqiy professional ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, bugungi kunda yoshlarning ruhiy holati nozik bo'lgani uchun o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi va motivator ham bo'lishi zarur. Ko'plab pedagogik takt va etika mavjud bo'lgan sinfda o'quvchilar erkin fikr bildiradi, o'ziga ishonchi ortadi va ta'lim samaradorligi yuqori bo'ladi. Bunday muhitda o'quvchi maktabni majburiyat emas, rivojlanish maskani sifatida qabul qiladi. Pedagogik takt va etikani rivojlantirish uchun o'qituvchilarga muntazam treninglar tashkil etish, pedagogik takt va etika bo'yicha seminar va treninglar o'tkazish, psixologik yondashuvni kuchaytirish, har bir o'qituvchi o'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib muomala qilish va o'quvchilarning fikrini tinglash, ularni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash orqali sog'lom muhit shakllantirish shu bilan birgalikda ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish kerak. Pedagogik etika faqat sinfda emas, ota-onalar bilan munosabatlarda ham namoyon bo'lishi kerak. O'qituvchi va ota-onaning hamkorligi o'quvchi tarbiyasida katta ahamiyatga ega.

Pedagogik takt va etikaga ega bo'lgan o'qituvchilar ta'lim sifatini oshirishga, o'quvchilar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga hamda barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Har bir pedagog ushbu tamoyillarga amal qilsa, ta'lim jarayoni yanada samarali va insonparvar bo'ladi. O'qituvchining o'quvchilarga nisbatan hurmat, mehr, adolat va mas'uliyat asosida yondashuvi ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ijobiy psixologik muhit yaratadi hamda shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi. Natijada ta'lim sifati oshadi, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida o'zaro ishonch mustahkamlanadi hamda barkamol avlodni tarbiyalash uchun mustahkam zamin yaratiladi.

References:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Ochilov M. Pedagogik mahorat. — Toshkent: O'qituvchi, 2005.
4. Nishonova S. Pedagogika nazariyasi va tarixi. — Toshkent, 2011.
5. Xasanboyeva O. Pedagogika. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
6. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. — Toshkent, 2010.
7. Pedagogik takt va pedagogik etika bo'yicha materiallar. soff.uz
8. Pedagogik takt va pedagogik etika mavzusidagi ilmiy-uslubiy manbalar. Ilmiyish.uz

